

O‘SMIRLIK YOSH DAVRIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA EMOTSIONAL MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

University of business and science

Psixologiya yo‘nalishi 23-33 guruh talabasi

Mamajanova Odina Sahobiddinovna

Ilmiy raxbar: Jurayev Xaydarjon Odilboyevich

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik yosh davrida namoyon boladigan xarakter aksentuatsiyasi va emotsional munosabatlarning psixologik jixatdan dominant bulgan jixatlarining nazariy jixatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xarakter aksentuatsiyasi, emotsional xolatlar, pedant tip, demonstrative tip, deviant xulq-atvor, temperament tiplari.

Аннотация: В этой статье рассматриваются теоретические аспекты психологически доминирующих аспектов акцентуации характера и эмоциональных отношений, которые проявляются в подростковом возрасте.

Ключевые слова: акцентуация характера, эмоциональные состояния, педантичный тип, демонстративный тип, девиантное поведение, типы темперамента.

KIRISH

Hozirgi globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, oilaviy va ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar shaxsning emotsional holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi va emotsional munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik dolzarb ilmiy-psixologik muammo hisoblanadi.

Chunki aynan shu davrda shaxsning emotsional reaksiyalari keskinlashadi va xarakter xususiyatlari nisbatan barqarorlashadi. Xarakter aksentuatsiyasi shaxs xarakterining ayrim jihatlari kuchli rivojlangan, boshqalariga nisbatan ustun bo'lib, psixik moslashuv sharoitida norma doirasida qoladigan, biroq stress, konflikt yoki ijtimoiy bosimda keskin namoyon bo'ladigan holatdir. Leonhard va Lichko ta'kidlaganidek, aksentuatsiya patologiya emas, lekin emotsional zo'riqish paytida u nevrotik va affektiv reaksiyalarga olib kelishi mumkin. Demak, xarakter aksentuatsiyasi shaxsning emotsional munosabatlarini shakllantiruvchi ichki determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Xarakter shaxsning individual-psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, u insonning atrof-muhitga, boshqa odamlarga, faoliyatga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida xarakter shaxs tuzilmasining muhim komponenti sifatida qaralib, uning shakllanishi biologik, ijtimoiy va psixologik omillar bilan belgilanadi. Klassik psixologiyada xarakter muammosi A.G. Kovalyov, S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananyev, K. Leonhard kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning ta'kidlashicha, xarakter shaxs faoliyati va muloqot jarayonida shakllanib, ijtimoiy tajriba asosida barqarorlashadi.

Xarakter aksentuatsiyasi shaxs xarakterining ayrim sifatleri haddan tashqari kuchli namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadigan holat bo'lib, bu xususiyatlar norma doirasidan chiqmagan holda shaxsning emotsional va xulq-atvoriy reaksiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tushuncha ilk bor K. Leonhard tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u aksentuatsiyani shaxs tuzilmasidagi ekstremal, ammo patologik bo'lmagan variant sifatida talqin qilgan. A.E. Lichko esa aksentuatsiya tipologiyasini o'smirlik davriga moslashtirib, ularning psixologik va ijtimoiy oqibatlarini keng yoritgan. Leonhard va Lichko yondashuvlarida aksentuatsiya: individual psixologik xususiyat; emotsional reaksiyalarning intensivligi; ijtimoiy moslashuv darajasi bilan bevosita bog'liq fenomen sifatida qaraladi. Emotsional soha shaxsning tashqi va ichki voqelikka bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi psixik tizim bo'lib, u hissiyotlar,

kayfiyat, affekt va emotsional holatlar orqali ifodalanadi. Emotsiyalar shaxs faoliyatining motivatsion, regulyativ va kommunikativ jihatlarini boshqaruvchi asosiy mexanizmlardan biridir. Zamonaviy psixologiyada emotsional soha muammosi L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, P.K. Anoxin, D. Goleman tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ularning fikricha, emotsional rivojlanish shaxsning ijtimoiy moslashuvi va psixologik salomatligini ta'minlovchi muhim omildir.

Xarakter aksentuatsiyasi emotsional sohaning namoyon bo'lish xususiyatlarini belgilovchi muhim determinant hisoblanadi. Aksentuatsiyalangan shaxslarda emotsional reaksiyalar: intensive, keskin vaziyatga nisbatan haddan tashqari sezgir bo'lishi mumkin. Masalan, emotiv tipda chuqur hissiy kechinmalar ustun bo'lsa, epileptoid tipda affektiv portlashlar kuzatiladi, shizoid tipda esa emotsional sovuqqonlik namoyon bo'ladi. Bu holatlar emotsional munosabatlarning sifati va barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. O'smirlik davri shaxs rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib, bu davrda biologik yetilish, ijtimoiy rol izlash va "Men" konsepsiyasining shakllanishi emotsional beqarorlikni kuchaytiradi. Shu sababli aynan o'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi eng yaqqol namoyon bo'ladi. Noqulay ijtimoiy muhit, oilaviy nizolar, pedagogik e'tibor yetishmasligi aksentuatsiyaning salbiy shakllarini kuchaytirib, emotsional sohada buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Emotsional munosabatlar bu shaxsning tashqi va ichki voqelikka nisbatan hissiy bahosi bo'lib, kayfiyat, affekt, hissiyot, emotsional barqarorlik kabi komponentlar orqali ifodalanadi. Emotsional munosabatlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Baholovchi funksiya vaziyatni ijobiy yoki salbiy qabul qilish
2. Regulyativ funksiya xulq-atvorni boshqarish
3. Motivatsion funksiya faoliyatga undash
4. Kommunikativ funksiya muloqotni tartibga solish

Xarakter aksentuatsiyasi ushbu funksiyalarning namoyon bo'lish intensivligiga bevosita ta'sir qiladi. Xarakter aksentuatsiyasi tiplari va emotsional munosabatlar Emotiv tip vakillari yuqori hissiy sezgirlik, empatiya va rahmdillik bilan ajralib turadi. Ularda yaqinlariga kuchli emotsional bog'lanadi, tanqidni chuqur kechinma bilan qabul qiladi, emotsional jarohatlanishga moyil bo'ladi.

Emotsional munosabatlar chuqur, ammo beqaror bo'lishi mumkin. Gipertim tip shaxslar doimiy ijobiy kayfiyat, faollik va muloqotga ochiqligi bilan xarakterlanadi. Ularda hissiyotni yuzaki kechiradi, salbiy holatlarga uzoq to'xtalib qolmaydi, emotsional barqaror ko'rinadi, ammo ichki refleksiya sust bo'ladi. Emotsional munosabatlar tez o'zgaruvchan va yuzaki. Tsikloid tipda emotsional holat davriy o'zgarib turadi: ko'tarinki davrda faol va ochiq; pasayish davrida tortinchoq va tushkun. Emotsional munosabatlar barqaror emas, vaziyatga bog'liq. Epileptoid tip vakillari affektiv portlashlarga moyil bo'lib, ularda: jahldorlik, tajovuzkorlik, hissiy rigidlik kuzatiladi.

Emotsional munosabatlar keskin, salbiy yo'nalgan bo'lishi mumkin. Shizoid tip shaxslar tashqi tomondan sovuqqon bo'lib, ichki kechinmalarini namoyon etmaydi. Ular: muloqotda qiyinchilikka duch keladi, emotsional yaqinlikdan qochadi, hissiyotlarni ichida saqlaydi. Emotsional munosabatlar cheklangan va yopiq. O'smirlik davri shaxs emotsional tizimining qayta qurilish davri hisoblanadi. Bu davrda: gormonal o'zgarishlar, "Men-konsepsiya"ning shakllanishi, ijtimoiy rolni izlash emotsional beqarorlikni kuchaytiradi.

Agar aksentuatsiya kuchli bo'lsa, quyidagi holatlar yuzaga kelishi mumkin: affektiv portlashlar, xavotir va depressiv holatlar, agressiv yoki befarq emotsional munosabatlar. Emotsional munosabatlarning buzilishi oqibatlari xarakter aksentuatsiyasi bilan bog'liq emotsional buzilishlar, deviant xulq-atvor muloqotdagi nizolar, ijtimoiy moslashuvning pasayishi, psixosomatik muammolar kelib chiqishiga zamin yaratadi. Xulosa tarzida shuni aytrishimiz mumkinki shaxsda xarakter aksentuatsiyasi shaxsning emotsional munosabatlarini belgilovchi muhim

psixologik omil bo'lib, emotsional reaksiyalar intensivligini, hissiy barqarorlik darajasini; ijtimoiy munosabatlar sifatini aniqlab beradi. Shu boisdan, aksentuatsiyani o'z vaqtida aniqlash va emotsional sohani korreksiya qilish shaxsning sog'lom rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. . Taskarayevna, N. Z., Yuldibayevna, B. G., Niyazova, N., Shehzadi, I., & Turayev, S. (2026). Pedagogical Transformations: Agentic AI as a Co-Teacher and Learning Partner. In *Multidisciplinary Perspectives on Agentic AI in Educational Systems* (pp. 63-86). IGI Global Scientific Publishing.
2. Gulmira, B. (2019). Semantic and psychological relationship of Envy and Jealousy. In *Bridge to science: research works* (pp. 174-176).
3. Yuldibayevna, B. G. (2020). Masofaviy ta'limdagi talaba shaxsini tarbiyalashda psixologik tavsiyalar. *Science and Education*, 1(1), 454-457.
4. Odilboyevich, J. X. (2025). BOSHLANG'ICH SINIF O 'QUVCHILARINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TA'LIM TARBIYANING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 338-342.
5. Odilboyevich, J. X. (2025). O'SMIRLIK YOSHIDA YUZAGA KELADIGAN REFLEKSIV KOMPETENTSIYANI PSIXOLOGIK VA PEDAGAGIK XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 320-330.
6. Xusanboy, X. G., & Odilboyevich, J. X. (2025). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARINING PERSEPTIV JIXATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 331-337.
7. Odilboyevich, J. X. (2025). O 'SMIRLARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING BOSHQA XULQ-ATVOR SHAKILANISHGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK MECHANIZMLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 59(2), 338-

347.

8. Odilboyevich, J. X. (2025). SHAXS XARAKTERIGA TASHXIZ QO 'YISHDA PROFAYLING METODINING PSIXOLOGIK JIXATLARI. *Advances in Science and Education*, 1(03), 77-79.
9. Jurayev, X. (2025). O 'smirlarda xarakter aksentuatsiyasining o 'ziga bo 'lgan ishonch rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(12).